

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyevo

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

GEOGRAFIK NOMLARNI O'RGANISHGA IJTIMOIY-EKOLOGIK YONDASHUV**СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ****SOCIAL-ECOLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF PLACE NAMES****Otaqulov Pozil Sobirovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasи dotsenti v.b., g.f.f.d.(PhD)**Annotatsiya**

Bugungi kunda fanning ikki yoki undan ko'proq yirik sohalari kesishmasida joylashgan, predmetlararo mazmunga ega bo'lgan ilmiy yo'nalishlari jadal rivojlanib borayotgani ko'zga tashlanmoqda. Geografiya fani rivojining bugungi davrdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning predmet maydonining kengayib, fanlararo tadqiqotlarni tobora ko'proq nazariy va amaliy muammolar yechimidagi ahamiyati ortib borayotganligidadir. Mazkur maqolada geografik nomlarni tadqiq etishning asosiyo yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan.

Аннотация

Сегодня заметно, что стремительно развиваются научные направления, находящиеся на стыке двух и более крупных областей науки, имеющие междисциплинарное содержание. Одной из отличительных особенностей развития науки географии сегодня является то, что ее предметная область расширяется, а значение междисциплинарных исследований в решении все большего числа теоретических и практических задач возрастает. В данной статье рассматриваются основные направления исследования географических названий.

Abstract

Today it is noticeable that scientific directions that are at the intersection of two or more large fields of science and have interdisciplinary content are rapidly developing. One of the distinctive features of the development of the science of geography today is that its subject area is expanding, and the importance of interdisciplinary research in solving an increasing number of theoretical and practical problems is increasing. This article discusses the main directions of research on geographical names.

Kalit so'zlar: geografik nomlar, toponim, semantik tafsif, topos, geokonsept, ekologik toponim, tarix, toponimika, tilshunoslik.

Ключевые слова: географические названия, топоним, семантическая классификация, топос, геоконцепт, экологический топоним, история, топонимика, лингвистика.

Key words: geographical names, toponym, semantic classification, topos, geoconcept, ecological toponym, history, toponomy, linguistics.

KIRISH

Hozirgi kunda ko'proq tabiiy va texnikaviy yo'nalishlarda erishilgan natijalarini hayotga tatbiq etishda gumanitar soha bilan hamkorlik qilish kutilgan natijalar bermoqda. Shuning uchun ham jamiyatda tabiiy fanlarning gumanitarlashuvi yoki ijtimoiylashuvi davr taqozosidan kelib chiqqan tarzda davom etmoqda.

Geografiya fani rivojining bugungi davrdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning predmet maydonining kengayib, fanlararo tadqiqotlarni tobora ko'proq nazariy va amaliy muammolar yechimidagi ahamiyati ortib borayotganligidadir. Shunday yo'nalishlardan biri tarix, geografiya va tilshunoslik oralig'iда joylashgan toponimika fanidir [4; 5; 7; 8]. Keyingi paytlarda toponimikaning mazkur chegaraviy o'rniqa uning tez rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri sifatida qaralmoqda. Yuqoridaq fanlarda mavjud yondashuv, usul va uslublardan foydalanish, tabiat bilan jamiyat o'tasidagi inqilobiy tezlashgan axborot almashinuvi jarayonida GAT texnologiyalarini qo'llash imkoniyati toponimikaning geografik yo'nalishlarini yanada jadal rivojlanishiga turki bo'ldi. Geografik yo'nalishdagi toponimik tadqiqotlarning retrospektiv tahlili ularni 4 ta yondashuv asosidagi 8 ta yo'nalishga ajratish imkoniyatini berdi (1-jadvalga qarang).

Mazkur maqolaning maqsadi geografik nomlarni o'rganishda o'ziga xos yondoshuvlar asosida nomlarni tadqiq etishning yo'nalishlari belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR

Dastlabki tadqiqotlar an'anaviy yo'nalishda tarixiy-geografik yondashuv asosida xronologik aspektida olib borildi. Bu yo'nalishda biror hududni tasvirlashda turli til guruhlarga kirgan nomlarning

GEOGRAFIYA

joylashishi, tarqalish qonuniyatlari o'rganildi. Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» asarida 400 dan ortiq, «Qonuni Ma'sudi» kitobida 600 dan ortiq geografik nomlarni tilga olgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asariga ilova qilingan dunyo kartasidagi yuzga yaqin joy nomlaridan tashqari, matnda 82 ta qishloq va shahar nomi, 68 ta mamlakat, viloyat, o'lka nomlari, 25 ta dengiz, ko'l, daryo, soy nomlari, 78 ta urug', qabila, xalq nomlari, Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» asari matnida 1357 ta nom jumladan, 880 ta antroponim, 286 ta toponim, 118 ta etnonim, 51 ta gidronim, 22 ta oronimning geografik va etimologik izohlari berilgan [10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Toponimik izlanishlarda geografik obyektlarga nom qo'yish jarayonining hududda keng tarqalgan tabiyi va madaniy landshaft elementlariga asoslanishi tahlil qilindi. Nom berish jarayoni qonuniyatlaridan pozitivlik, nisbiy negativlik, qatorlar qonuni, o'zlashma nomlar kabi qonuniyatlar mazmun-mohiyati oshib berildi [7; 38-b.]. Bu yo'naliishda toponim yaratilishida asos bo'luvchi, faol qatnashuvchi toponomik asoslar, topoformantlar, toponimik modellar mohiyati o'rganildi. Masalan, o'simliklar dunyosi bilan bog'liq nomlar mohiyatini ochishda "-zor" affiksi bilan yaratilgan nomlardi e'tibor beriladi. Bu kabi topoformantlar bizning tadqiqotimiz uchun birinchidan, tabiiy- ekologik sharoitga mos holda bir hududda ko'p tarqalgan o'simlik turini bildirsa, ikkinchidan, ba'zi holatlarda mazkur o'simliklarni o'tmishdagi tarqalish areallarini aniqlash imkonini yaratadi. Jumladan, Anjirzor, Anorzor, Alichazor, Bodomzor, Gulzor, Do'lanaazor, Qayrag'ochzor, Ko'kalamzor, Ko'chatzor, Limonzor, Lolazor, Mevazor, Nokzor, Olvalizor, Olmazor, Olchazor, Terakzor, Tokzor, Tolzor, Tutzor, Uzumzor, O'rikzor, Chamanzor, Chilonzor, Shaftolizor, Shuvoqzor, Yong'oqzor, Yulg'unzor kabi nomlar shu usulda yasalgan [3]. Bu yondashuv geografik nomlarni tadqiq etishda, ularni yaratilishida, nomlanishida ham keng qo'llanadi.

Uchinchi yo'naliish sifatida geografik obyektlar toifalarini (oronim, gidronim, fitoponim...), qaysi tildan olinganligini (sug'diy, forsiy, turkiy, arab...) aniqlash asosida nomlar etimologiyasini oshib berishga qaratilgan izlanishlar olib borildi. Geografik nomlarni tasniflash masalalari E.M.Murzayev, V.A.Juchkevich, H.H.Xasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, T.Enazarov, P.G'ulomov kabi olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan.

1-jadval

Geografik nomlarni tadqiq etishning asosiy yo'naliishlari

Yondashuv-lar	Tadqiqot obyektlari va g'oyalari	Fanlararo aloqadorlik	Tadqiqotchilar
Tarixiy-geografik	1. Mintaqqa, davlat yoki hududni geografik nomlarini o'rganish, hududiy tahlil	tarix, geografiya	Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, X.Vamberi, A.Boxodirxon.
	2. Nom berish jarayoni qonuniyatları: pozitivlik, negativlik, zonallik, azonallik	tarix, filologiya, geografiya	V.A.Nikonov, A.V.Superanskaya, E.M.Murzayev, X.Xasanov, S.Qorayev, X.Doniyorov, S.Gubayeva. A.Muxammadjonov,
Lingvo-geografik	3. Geografik nomlarni tasniflash: toifalar, qatlamlarga ajratish.	geografiya, filologiya	A.Doza, E.M.Murzayev, V.A.Juchkevich, E.Begmatov, X.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, T.Enazarov, N.Uluqov, P.G'ulomov
	4. Geografik va xalq terminlaridan foydalanish	geografiya, filologiya	E.M.Murzayev, X.Hasanov, V.A.Juchkevich, S.Qorayev, N.Oxunov, M.Mirakmalov.
Ijtimoiy geografik	5. Geografik nomlarni madaniy-ma'naviy jihatlari, topos, geokonsept	tarix, geografiya, falsafa	X.Hasanov, N.V.Kolutskov, S.Qorayev, T.Enazarov, Y.A.Vedenin, A.T.Drujinin.
	6. Nom berish jarayonini boshqarish, qayta nomlash, ekzonim	tarix, kartografiya, geografiya	S.Qorayev, N.Oxunov, Y.Ahmadaliyev, YE.M.Pospelov, O.YE.Afanasyev.

Ekologik-geografik	7. O'tmishdagi landshaft unsurlarini tiklash, antropogen ta'sirni o'rganish	geografiya, ekologiya, biologiya	X.A.Xanmagomedov, YE.L.Lyubimova, E.M.Murzayev, V.S.Jekulin, V.A.Juchkevich, R.M.Yuzbashev, G.I.Xornuli, S.Qorayev, X.Hasanov.
	8. Ijtimoiy asosli nomlar, topotponimlarning (metonimiya) funksiyalari.	geografiya, falsafa, ekologiya	N.V.Kolutskov, A.R.Bubnova, L.N.Gumelev, A.T.Drujinin, S.Qorayev, N.Uluqov, N.Oxunov.

Jadval: muallif tomonidan tuzilgan.

Geografik nomlarni tasniflash hozirda ko'proq 5 ta mezon (kriteriya) asosida o'tkaziladi. Bu mezonlar biroz o'zgarishlar bilan, deyarli barcha tadqiqotlarda kuzatiladi. Ijtimoiy-ekologik yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun nomlarning **semantik tasnifi** ahamiyatlari bo'lib, bu tasnif geografik obyektlarning kelib chiqishiga asoslanadi. Geografik nomlar dastlab ikki guruhga ajratiladi: a) geografik obyektlarning tabiiy-landshaft xususiyatlariiga bog'liq holda, b) jamiyat rivojining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g'oyaviy holatlari, xususiyatlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan nomlarga bo'linadi.

An'anaviy yo'nalishda ijtimoiy-geografik yondashuv asosidagi dastlabki tadqiqotlar esa geografik va xalq terminlaridan toponimlarni toifalarga ajratish, kelib chiqishi va turini aniqlash, geografik mohiyatini ochib berishga yo'naltirildi. Ko'pincha, geografik terminlar (adir, ariq, buloq, daryo, jar, soy, ko'l, tepe, tog', tosh, cho'l, quduq, qishloq, kent, obod va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik obyekt turini bildiradi. Huddi shunday terminlar dunyoning barcha tillarida mavjud, masalan, dunyoning tabiiy kartasida tog'ni anglatuvchi rus tilida «gor», tojik tilida «ko'h», arab tilida «jabal», xitoy tilida «shan», nemis tilida «berg», ispan tilida «montana» kabi geografik terminlarni ko'plab uchratish mumkin. Geografik terminlarni tahlil etish nafaqat, geografik nomning etimologiyasini to'g'ri ochib beradi balki, o'tmish landshaftlarning tabiiy komponentlari - relyef, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kabilarning tarqalish arealini hamda jamiyatning rivojlanish bosqichlarini, shu hududda yashagan aholini ijtimoiy-ekologik xususiyatlarni, kasb-korini, ekologik madaniyatini o'rganish va tadqiq qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Masalan, tepe - obyektning hududdagi gipsometrik tavsifini ifodalasa, tog' (gor, ko'h, jabal, shan, maunt, berg), shahar (gorod, obod, madina, kin, taun, burg) terminlarining turli tillarda ifodalanishi nom qo'yish jarayoniga obyektning ta'sirini ko'rsatib turadi. Shu bilan bir qatorda geografik terminlarning ekotoponim hosil qiluvchi xususiyatlari ham bo'lishi mumkin, masalan, Mingtepa o'rnila o'nta tepe, Ulug' tog' o'rnila kichik adirlik, Bobil shahri o'rnila kichik aholi maskani qolgan bo'lishi ham mumkin.

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida o'tkazilayotgan innovatsion tadqiqotlarning beshinch yo'nalishida geografik nomlarning madaniy-ma'naviy jihatlariga e'tibor berilmoqda. Madaniy geografiyada toponim-geomadaniy tizimni majburiy elementi bo'lib, geografik obyektni o'z-o'zini aniqlash usuli, uning yakkaligi va noyobligini ta'kidlash vositasidir [6]. Bunday yondashuvda toponimlar filologlar, etnograflar, folklor mutaxassislari tomonidan o'rganiladi va yig'iladi. Toponimlarning geografik nomlarga aylanishi uchun, birinchidan u ma'lum shaklga ega bo'lgan geografik obyektga berilishi yoki «kiydirilishi» kerak. Masalan, Farg'ona-toponim, Farg'ona viloyati yoki Farg'ona shahri esa turli hududiy shaklga (viloyat va shahar) ega bo'lgan geografik nomdir. Geografik terminlarga (bu yerda viloyat va shahar) toponim o'tkazilsa u lingivistikada topoformatlar deb ataladi. Biroq ular hududiy mazmun kasb etmaydi, faqatgina mintaqaviy-dialektik farqlarni aniqlashga ko'maklashadi. Ikkinchidan, toponim geografik jihatdan rasmiylashtirilgandan so'ng, ya'ni geografik terminga ega bo'lganda, uni yirik va mayda masshtabli kartalarga tushiriladi hamda geografik nomlarga aylanadi.


Geografik nomlarni landshaft asosida tadqiq etishga mutlaqo yangi ekologik asosdag'i yondashuv V.N.Kolutskov tomonidan amalga oshirildi. U tomonidan madaniy landshaftga ijtimoiy - tabiiy tizim sifatida qarash, uning joydagi tashkil etilishi va birligi-topos ilmiy jihatidan asoslab berildi [6, 10-b.]. Muayyan madaniy landshaft doirasidagi joy biror maqsadda foydalanishni boshlanishi bilan, uning hududiy, tashqi ko'rinishdagi, ma'nosidagi o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi nom

GEOGRAFIYA

(toponim) berilishi bilan **topos** yuzaga keladi. Toposning oddiy formulasi topos=joy+toponim [6; 98-b]. Bunday yondashuvda joy toposning moddiy asosini, bazasini tashkil qilsa, toponim uning g'oyaviy asosini ustqurmasini tashkil etadi. Bu ikki jihatning o'zaro birikuvi mukammal, yagona o'ziga xos yaratmani yuzaga keltiradi. Ekologik jihatdan ularni birga tizimli o'rganishgina kutilgan natijani berishi mumkin.

Joy - toposning moddiy asosi bo'lganligi sababli ko'p hollarda toponim uning xususiyatlarini aks ettiradi. Bu yerda eng muhim o'ziga xos jihat shundaki har qanday nom qo'yilmagan joy ham shu joyning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni real voqeahodisalarini o'zida aks ettiruvchi prototoponimiga ega bo'ladi. Joylarga nom qo'yish jarayonida shu prototoponim toponimga aylanadi. Masalan, tepe-Oqtepa, sho'r-Sho'rqishloq, jar-Jarqo'rg'on yoki chek-Qirg'izchek, bozor-Bozorboshi va b. (1-rasmga qarang).

V.N.Kolutskovning ta'kidlashicha «Topos uchun uning nomi toponim muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga toposning tili, ixchamlashtirilgan mahalliy tarixi sifatida qarash mumkin. Toponim orqali joyning tarixi davom etadi va uning ijtimoiylashuvi yuz beradi, u jamoaning mulkiga aylanadi, jamoanining madaniy tafakkur xaritasidan o'z o'rnini topadi hamda ijtimoiy ahamiyatli ma'lumotlar bazasi sifatida saqlanadi» [6; 99-b.].



1-rasm. Toposning tarkibiy tuzilishi

Ijtimoiy ahamiyatli ma'lumotlarni yuqori darajasida toponim geokonseptga aylanadi. Geokonsept deganda - ma'lum kishilik jamoasi uchun ahamiyatga, qadr-qimmatga ega bo'lgan, o'zining barqaror, o'zgarmas qiyofasiga (timsolga) ega bo'lgan joy tushuniladi. Geokonseptni toponim+qiyofa+joy (hudud) formulasida tasavvur qilish mumkin. Geokonseptni hudud – toponim ko'rinishida tasavvur qilish hamda kartada aniq geografik chegaralarga ega bo'lgan geografik nomlardan farqli tomoni uning joy+toponim ko'rinishida bo'lib, chegaralarining aniq emasligi, biroq doimo tiniq ifodalangan mazmuniy yadroga ega bo'lganligidir. O'zbek tilida Xorazm yoki Farg'ona oddiy toponim yoki geografik nom emas balki o'zining madaniy, tarixiy va geografik qiyofasiga ega bo'lgan geokonseptdir.

Mazkur tadqiqotda geokonsept g'oyasiga faqatgina madaniy jihatdan emas balki ekologik nuqtai-nazardan yondashish natijasida uning kishilik jamiyatidagi ekologik funksiyasini ochib beruvchi yangi shakli taklif etildi. Geografik nomlarga ulug'lovchi, iloxiylashtiruvchi, sirli, g'ayritabiyy, kishilar orzusidagi geografik terminlarni qo'shish orqali paydo bo'lgan va mintaqaga tabiatini muhofaza qilishga ko'maklashuvchi ekologik jihatdan ahamiyatli geografik nomlarni **ekologik geokonseptlar** deb atash mumkin. Bundan tashqari etnos+geografik termin, geografik termin+kishi ismi, etnos+gidrologik termin shaklida yaratilgan Tojikqishloq, Cheksharif, Turkonariq kabi geokonseptlarning ham madaniy-ekologik xususiyatlarini ochib berish mazkur tadqiqotning vazifalaridan biri hisoblanadi[2].

Ijtimoiy-geografik tadqiqotlarning oltinchi yo'nalishi nom berish jarayonining boshqarishni takomillashtirishga bag'ishlanmoqda. Bu yo'nalishda ekzonimlarni ya'ni an'anaviy nomlarni tahlil qilish, qayta nomlash sabablarini o'rganishda yuqori darajadagi kartografik savodxonlik va mintaqaga geografik nomenkulaturasini puxta bilish talab etiladi. Geografik nomlar - davlatlar o'tasida olib boriladigan xalqaro aloqalarning bosh vositasidir. Ularni tartibga solish, standartlashtirish va moslashtirish muhim xalqaro vazifa hisoblanadi. Shuning uchun dunyodagi mustaqil mamlakatlarda bu masalani to'g'ri hal etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari, geografik nomlar mamlakatlarning qonun hujjalariда, davlat hamda mahalliy hokimiyat qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlari faoliyatida, ishlab chiqarish, transport, aloqa ishlarida, turli xabar va ma'lumotnomalarda, ilmiy, ta'limiy, axborot va boshqa nashrlarda ko'plab uchrab turadi. Geografik nomlarsiz yuqoridagi ma'lumotlarning birontasi to'liq mazmun va ma'no kasb etmaydi, chunki bu

xabar va ma'lumotnomalardagi ko'p uchraydigan «qayerda» degan savolga javob geografik nomlarda mujassamlanadi.

Yettinchi yo'nalishda ekologik-geografik yondashuv asosidagi o'tkazilayotgan izlanishlarga e'tibor qaratiladi. Geografik nomlarning uzoq vaqt saqlanib «ekologo-geografik oqibatlar yodgorligi»ga aylanib qolishi tabiiy atrof-muhitga antropogen omil ta'sirini baholashda qo'shimcha material sifatida xizmat qiladi [11]. Ekologik jihatidan ahamiyati yuqori bo'lgan toponimlarni fanda **ekologik toponimlar** deb atalmoqda.

Ekologik toponimlar tushunchasi adabiyotlarda ilk bor 1993-yilda dog'istonlik olim X.L.Xanmagomedov tomonidan ishlatildi. Mualif bo'yicha ushbu yo'nalishning «asosiy vazifasi o'tmishdagi landshaftlar va tabiiy geografik sharoitning toponimlarda aks etishini, etnoslarni yangi ijtimoiy-geografik va landshaft muhitida joylashishi va moslashishiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni o'rganish, antropogen ta'sir natijasida yo'qotilgan biotsenozlar hamda alohida o'simlik va hayvon turlari tarqalgan areallarni tiklashdir» [11; 126-b.].

Ekologik-geografik yo'nalishdagi izlanishlarning sakkizinchisi yo'nalish toponimlar hosil qilishdagi metonimiya usuliga innovatsion yondashishdir. Bu usulni mohiyati geografik nomni bir obyektdan boshqa obyektga ko'chishida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda nomi berilayotgan obyektlar hududiy jihatidan bir biriga yaqin bo'lsada, turli toponimik sinflarga mansub bo'lishi mumkin. Topotoponimlarning ekologik funksiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'nalishda gidronimlarni muhofaza qilish, sun'iy suv havzalarini bir maromda ishlashini ta'minlash, suvlarini ifloslanishdan saqlashda mazkur usulni o'rni yuqoridir. Topogidronimlarni shahar, shaharcha, qishloq, mahalla nomi bilan atalgan turlari uchraydi. Masalan, Namangansoy, Chimyonsov, Beshkapa arig'i kabi.

Yana bir holat daryo, soy, ariq qaysi aholi maskanidan oqib o'tsa, shu maskan nomi bilan atalishi va tarixiy nomlarining turlicha bo'lismeni o'z davrida H.Xasanov Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi misolida ko'rsatib bergen. Mazkur ishda bu nomlar ham ekologik-geografik yo'nalishda tahlil etilsa, mazkur suv obyektlari muhofazasiga, ulardan oqilona foydalanishga masul u nom bilan atalgan shahar yoki qishloq aholisi ekanligini anglash mumkin.

XULOSA

Geotoponimik tadqiqotlarning ijtimoiy-ekologik yo'nalishidagi izlanishlari toponim, geografik nom va geokonsept ko'rinishida chiqurlashib boradi. Ma'lum kishilik jamoasi uchun ahamiyatga, qadr-qimmatga ega, o'zining barqaror, o'zgarmas qiyofasiga (timsolga) ega bo'lgan geografik nomlar geokonseptga aylanib borish jarayoni vodiyyadagi geografik nomlar misolida ochib berildi. Bunday xalqning madaniy boyligi darajasiga ko'tarilib, geokonseptga aylangan geografik nomlardan faqatgina manzil (adres)ni aniqlashda emas, balki mintaqadagi ijtimoiy-ekologik masalalarni hal etishda foydalanish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аҳмадалиев Ю., Отакулов П. Топонимлар пайдо бўлишининг географик жиҳатлари. – Т. : Ўзбекистон География жамияти Ахбороти, 36-жилд. 2010. Б.63-65
2. Аҳмадалиев Ю., Отакулов П. Экологик топонимлар. – Фарфона : Монография. 2021.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик // Ўқув қўлланма. –Фарфона, «Полиграф Сервис», 2018. -118 б.
4. Жучкевич В.А. Обшая топонимика. Изд. 2-е, испрavl. и доп. Минск: Высш.шк., 1968. 432 с.
5. Каравеев С.К. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарём. Т. : -500 с
6. Калуцков В.Н. Ландшафтная концепция в культурной географии.: Дисс....док. географ. наук.- М., 2009-295 с. //www.rangifer.org/gumilev/k12_2.shtml#06
7. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М.: Мысль, 1974. -382 с.
8. Никонов В.А. Введение в топонимику. –М.: Наука, 1965. 178 с.
9. Отакулов П. Экологик топонимлар ва уларни таснифлаш. –Т. : Ўзбекистон География жамияти Ахбороти, 46-жилд. 2015. Б.50-52.
10. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси// – Кўйкон.: ҚДПИ. 2005.96 б.
11. Ханмагомедов Х.Л., Гебекова А.Н.. Учение о географических названиях(топонимика) и пути его развития// Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И. Вернадского. №4(35). 2011 С.24